

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi
raisning birinchi o‘rinbosari



U.X. Abdullayeva

2025-yil 12-sentabr

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini “Ishonch telefoni” orqali qabul qilish davlat xizmati reglamenti

1. XIZMAT KO‘RSATISH MAZMUNI

Xizmat ko‘rsatish nomi

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda - Qo‘mita) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini “Ishonch telefoni” orqali qabul qilish.

Xizmat ko‘rsatish natijasi

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi “Ishonch telefoni”ga kelib tushgan murojaatlarni qabul qilish va ijroga qaratish.

Xizmat ko‘rsatuvchi organ

“Ishonch telefoni” orqali murojaatlarini qabul qilish Qo‘mita tomonidan amalga oshiriladi.

Huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (bundan buyon matnda qonun deb yuritiladi) hamda Vazirlar Mahkamasining “Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to‘g‘risidagi Namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 2018-yil 7-maydagi 341-son qaroriga muvofiq xizmat ko‘rsatiladi.

Xizmatdan foydalanuvchilar

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

So‘rovnoma berish muddati

So‘rovnoma berish muddati ko‘zda tutilmagan.

Ijro muddati

“Ishonch telefoni”ga kelib tushgan murojaatlar shu vaqtning o‘zida qabul qilinadi.

Tasdiqnoma yuborish muddati

“Ishonch telefoni” orqali qilingan murojaatlar qabul qilinganligi to‘g‘risida tasdiqnoma yuborish ko‘zda tutilmagan.

2. XIZMATDAN FOYDALANUV CHILARNI XABARDOR QILISH

Ma’lumot hajmi va tarkibi

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning murojaatlari Qo‘mitaning “Ishonch telefoni” orqali qabul qilinganligi va murojaatlarning ko‘rib chiqish holati to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

Kengaytirilgan holda xabardor qilish:

Qo‘mitaning “Ishonch telefoni” raqamlari hamda murojaatlarning ko‘rib chiqilishi holati to‘g‘risida statistik ma’lumotlar bilan O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin qizlar qo‘mitasining <https://gov.uz/uz/wcu> rasmiy veb sayti orqali tanishish mumkin.

2025-yil sentabr holatiga muvofiq, Qo‘mitaning ishonch telefon raqami 71-202-10-59 raqami orqali xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

So‘rov bo‘yicha xabardor qilish

Qo‘mitaning “Ishonch telefoni”ga qilingan murojaatlar yuzasidan telefon qo‘ng‘irog‘i orqali ma’lumot olish mumkin.

Xizmat ko‘rsatish joyi haqida xabardor qilish

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar Qo‘mitaning “Ishonch telefoni” orqali murojaat qilishadi va murojaatlarining ijro holati yuzasidan ma’lumot olishadi.

Foydalanadigan hujjatlar blankalari (shakllari)

Jismoniy va yuridik shaxslar Qo‘mitaning “Ishonch telefoni” orqali murojaat qilganida, ularning murojaatlarini qabul qilishda tasdiqlangan blanka (forma)lar ishlatilmaydi.

3. XIZMAT KO‘RSATISH

Ish vaqti

Qo‘mitaning “Ishonch telefoni” dushanbadan jumagacha, soat 9:00dan 18:00ga qadar faoliyat ko‘rsatadi.

Kutish shartlari

“Ishonch telefoni” orqali qilinayotgan murojaatlar o‘sha zahoti qabul qilinadi. va kutish ko‘zda tutilmagan. Faqatgina, murojaat qilayotgan abonentlar soni ko‘payib ketgan taqdirda, murojaatchilarning tarmoqda kutib qolishlari bundan mustasno.

4. XIZMAT KO‘RSATISH TARTIB - TAOMILI

Talab qilinadigan hujjatlar

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan va murojaatning mohiyati bayon etilishi kerak.

Xizmat ko‘rsatish qiymati

Xizmat bepul ko‘rsatiladi.

Xizmat ko'rsatishning bosqichlari

Qo'mitaning "Ishonch telefoni"ga qilingan murojaatlarning mazmun-mohiyati, qonun hujjatlarining buzilishiga oid ma'lumotlar aniq emansligi hamda murojaat etuvchining shaxsiy ma'lumotlari so'rab olingan holda yozib olinadi.

Xizmat ko'rsatishning ichki-idoraviy harakatlari

Qo'mitaning "Ishonch telefoni" murojaatlar bilan ishlaydigan bo'limga o'rnatilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan qo'ng'iroq qilib, qoldirilgan murojaatlar ushbu bo'lim tomonidan murojaat etuvchiga murojaatning qabul qilish va ko'rib chiqish tartibi bo'yicha tushuntirishlar berib, murojaatning mazmuni, qonunchilikning buzilish holati aniq va to'liq yoritilgan holda ma'lumot hamda murojaat etuvchiga ko'rilgan choralar haqida rasmiy ravishda javob yuborish uchun uning shaxsi, manzili va telefon raqamlari haqida ma'lumotlar so'rab olinib, "Ishonch telefoni"ga tushgan murojaatlar elektron ravishda ro'yxatga olinadi.

"Ishonch telefoni"ga tushgan murojaatlar yuzasidan Qo'mitaning murojaatlar bilan ishlaydigan bo'lim tomonidan murojaatning mazmuni, sodir bo'lgan qonunbuzarlikning joyi, vaqti va manzili ko'rsatilgan holda, belgilangan tartibda ijroga qaratiladi.

Rad qilish asoslari

Murojaatchining shaxsiga aniqlik kiritilishidan bosh tortgan taqdirda, fuqaroning murojaati qabul qilinmaydi va ijroga qaratilmaydi.

5. SIFATNI TA'MINLASH

Sifat ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan xizmatning sifati takroriy murojaatlarning past ko'rsatkichi bilan aniqlanadi.

Xizmatning sifatsizligi bo'yicha shikoyat qilish

Murojaatchi Qo'mita tomonidan ko'rsatilgan sifatsiz xizmat, xizmat ko'rsatish jarayonlariga rioya qilmaslik holatlari bo'yicha, mansabdor shaxslarning harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat berish uchun Qo'mitaning yuqori turuvchi organiga (yuqori turuvchi mansabdor shaxsiga) yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.